



Toshkent viloyati statistika boshqarmasi

Ijtimoiy soha

TOSHKENT VILOYATIDA SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMI.




2018 yil 1 yanvar holatiga Toshkent viloyatida 448 ta ambulatoriya-poliklinika muassasalari mavjud bo`lib, ularning soni 2011 yilga (496 ta) nisbatan 2018 yil 48 taga kamaydi. Shifoxona muassasalari soni esa 2011 yilda 82 ta shifoxona muassasasi faoliyat yuritgan bo`lsa, 2017 yilda viloyatdagi Shifoxona muassasalari soni 81 tani tashkil etdi Shifoxona muassasalari soni 2011 yilga nisbatan 1 taga kamaygan (1-rasm).



1-rasm


Davolash profilaktika muassasalari soni
(2011-2017 y.)





2-rasm


**Tumanlar kesimida davolash profilaktika muassasalari soni
(2017 y.)**



Toshkent viloyatining eng kop ambulatoriya-poliklinika muassasalari soni Zangiota tumanida 64 ta, Qibray tumanida 48 ta Chirchiq shahrida 40 taga to`g`ri keladi. Toshkent viloyatidagi shifoxonalar soni esa eng kop Angren shahrida 10 ta, Chirchiq shahrida 10 ta, Qibray tumanida 10 ta shifoxona muassasalar soniga to`g`ri keladi.



Tumanlar kesimida davolangan bemorlar soni, kishi.
(2017 yil)



Toshkent viloyatida 2011 yilda aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish sohasida 5,8 ming shifokor faoliyat yuritgan bo'lsa, 2017 yilga kelib ularning soni 5,8 ming kishini tashkil etadi. O'rta tibbiyot xodimlari soni esa 2011 yilda 23,5 ming kishini tashkil qilgan bo'lsa, 2017 yilga kelib bu ko'rsatkich 31,1 ming tashkil qildi. 1-jadval ma'lumotlari bo'yicha 10000 aholiga hisoblangan shifokorlar soni 20,1 ta, o'rta tibbiyot xodimlari soni esa 108,8 tani tashkil qildi.

1-jadval


Aholining tibbiyot xodimlari bilan ta'minlanganligi

	Jami shifokorlar soni (ming)	10000 aholiga to'g'ri keladigan shifokorlar soni	Jami o'rta tibbiyot xodimlari soni (ming)	10000 aholiga to'g'ri keladigan o'rta tibbiyot xodimlari soni
2017y.	5,8	20,1	31,1	108,8

4-rasm

Tumanlar kesimida har o'n ming aholiga to'g'ri keladigan shifokor va o'rta tibbiyot xodimlari soni

(2017 yil)



Toshkent viloyatida 2018 yil 1 yanvar holatiga har o'n ming aholiga to'g'ri keladigan shifokorlar soni jami 346,8 tagan iborat. Ulardan Chirchiq shahrida 39,2 ta, Bekobod shahrida 24,5 ta, Olmaliq shahrida 25,6, Qibray tumanida 33,2 tani tashkil etadi.

Har o'n ming aholiga to'g'ri keladigan o'rta tibbiyot xodimlari soni esa jami 1982,3 tagan iborat. Ulardan Angren shahrida 152,1 ta, Bekobod shahrida 149,9 ta, Olmaliq shahrida 144,3 ta va Chinoz tumanida 117,2 tani tashkil etadi.

Toshkent viloyati statistika boshqarmasi
Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi
Mas'ul: S.Sodiqova
Tel: (71) 230-86-81